



JADIDCHILIK DAVRI ADABIYOTIDA INSONPARVARLIK G'OYALARI.
(IS'HOQXON IBRAT MISOLIDA).

Azimov Humayunxon Mo'minovich

“Qashqadaryo viloyati teleradiokanali” DM bosh muharriri

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik davri adabiyotida insonparvarlik, ma'naviy uyg'onish va xalqni ma'rifatga chorlovchi g'oyalar tahlil qilinadi. Xususan, Is'hoqxon Ibratning ilm-ma'rifat, axloq va inson qadriyati haqidagi qarashlari tahlil markazida turadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Is'hoqxon Ibrat, ma'rifat, insonparvarlik, ma'naviyat, axloq.

Abstract: This article analyzes the ideas of humanism, spiritual awakening, and calling for enlightenment of the people in the literature of the Jadid period. In particular, the analysis focuses on Is'hoqxon Ibrat's views on science, enlightenment, morality, and human values.

Keywords: Jadidism, Is'hoqxon Ibrat, enlightenment, humanism, spirituality, morality.

Аннотация: В данной статье анализируются идеи гуманизма, духовного пробуждения и призывы к просвещению народа в литературе периода Джадидов. В частности, анализ сосредоточен на взглядах Ишоххона Ибрата на науку, просвещение, мораль и человеческие ценности.

Ключевые слова: Джадидизм, Ишоххон Ибрат, просвещение, гуманизм, духовность, мораль.

V dannyoy stat'ye analiziruyutsya idei gumanizma, dukhovn

Ma'lumki, XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat tarix sahnasiga ma'rifatparvar shaxslar - jadidlarni olib chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy kabi qomusiy bilim egalari ana shular jumlasidandir. Ular o'z bilimlarini millat ravnaqi, jamiyat rivoji yo'lida sarflashga intildi, o'rni kelganda mablag'ini ham ayamadi. Ular orasida Farg'ona jadidchilik harakati vakili Ishoqxon Junaydullaxon o'g'li Ibratning alohida o'rni bor.

Is'hoqxon to'ra Ibrat - milliy uyg'onish davrining faol ijodkorlaridan biri, serqirra iste'dod sohibi. Shoir va maorifchi Ibrohim Davron (1874-1922) Ibrat haqida quyidagilarni yozadi: «Is'hoqxon To'ra ulumi diniya va fanniya va adabiyada ustoz komillig'i bilan butun Farg'ona va digar jihat Osiyoyi Vustoda inkor o'lunmas darajada bir mavqe'i mutozi tutmushdur. Is'hoqxon to'ra ulumi diniyada mudarrisdur, fununi dunyaviyda, biloshubha, arxitektor, texnik va mexanik va fiziqiya ilminda tilfonist, tilig'rofigist va yana ximik desak yana ozdur, chunki bu ilmlarni bilur. Is'hoqxon to'ra olim va fozil bir zoti oliy bo'lub, bu turfa fazoili insoniyaga molik... Ba'zi ixtiroti ham bordur».

Is'hoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilangina cheklanib qolmadi. U o'qish davomida buyuk Sharq olimlari asarlarini mustaqil mutolaa qildi, arab, fors va rus tillarini chuqur o'rgandi, rus va o'zbek tillarida chiqadigan «Turkiston viloyatining gazet», «Turkestanskije vedomosti» kabi hamda Turkiston o'lkasiga yangi tarqalayotgan Ismoilbek



Gaspralining «Tarjimon» gazetasi bilan birinchi marta Qo'qon madrasasida o'qib yurgan kezlari tanishdi. 1886 yili madrasani tugatib, To'raqo'rg'onga qaytgan Ibrat o'z faoliyatini qishloqda ma'rifat tarqatishdan boshlaydi, o'sha yili qishloqda maktab ochadi. Uning maktabi «usuli qadim» — «usuli tahajji», ya'ni hijo metodiga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi.

Is'hoqxon to'ra Qo'qonda o'qib yurgan vaqtlarida o'lkada ochilayotgan rus maktablaridagi o'quv usullarining mahalliy maktablarda hukm surayotgan hijo hamda quruq yodlash usullaridan ustunligini sezgan edi. Shuning uchun u o'z maktabiga nisbatan ilg'or hisoblangan tovush (savtiya) usulini tatbiq qildi. Ammo bu maktab uzoq faoliyat ko'rsata olmadi.

Mutaassiblar uni yopishga muvaffaq bo'ldilar.[2.110-b]

Ibrat o'zining «Lo'g'ati sittati alsina», «Jom'e ul-hutut», «Tarixi Farg'ona» asarlarida yozishicha, 1887 yili, ya'ni 25 yoshida onasini Makkaga, haj ziyoratiga olib boradi. Biroq onaizoriga o'z vataniga qaytish nasib etmadi. Onasi Huribibi Jidda shahrida o'pka shamollash kasali bilan vafot etadi.

Is'hoqxon to'ra Ibratning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishdan asosiy maqsadi, birinchidan, onasini hajga olib boorish haqidagi iltimosini qondirish bo'lsa, ikkinchidan, chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish, bu mamlakatlarni o'z ko'zi bilan ko'rish istagi edi: «...Umrum naqdini havas bozorida kechirmak taqozosi-la o'lub, sinnim yigirma besh kechmish ekan, havoi taqozoi muhtarama dushub sayohat etdum....»[1.2-b]

Ishoqxon Ibrat o'z davrining yirik muarrixsi sifatida «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat», «Mezonuzzamon» ilmiy asarlarini yaratdi. Ibrat ushbu asarlarini yaratishda Sharq tarixchilari bilan bir qatorda rus va Yevropa sharqshunoslarining asarlaridan ham foydalandi. Ishoqxon Ibrat «Tarixi Farg'ona» asarida tarixiy voqealarga xon va beklarning munosabatini tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Muallif Buxoro amiri Nasrulloning 1842 yilda Qo'qonda mash'um qatlini uyushtirishiga qarshi chiqib, Qo'qon xonligi bilan birlashish va yaqinlashib kelayotgan rus bosqinining oldini olish harakatlarini qilish taklifi bilan chiqqan amir Nasrullo vazirlaridan biri Abdusamad noyibning oqilona so'zlarini keltiradi: «Holo Xo'qand zabt o'ldi, Farg'ona katta mamlakatdur, qancha askar va sipohu xazina sarf o'lub olindi, alholda Rusiyani kelmagi mahalliy xavfdur, agarda xonni onti aqd berub, tavba qiddurub, Xo'qandg'a qo'yub, Buxorog'a tobe' qilib, bir mulk bizlarga kelgan dushmanlarga bir qalqon bo'lur edi», deganida, so'zi amirga ma'qul bo'lmay, og'ziga kafsh bilan urdurg'on ekan». Olim Ishoqxon Ibrat ushbu so'zlarni keltirish orqali xonliklar, amirliklar ma'muriyatida uzoqni ko'ra oluvchi davlat arboblari mavjudligini ta'kidlash bilan birga, Nasrullo kabi kaltabin, burnidan narini ko'ra olmaydigan xonu beklarni qattiq qoralaydi.

Ishoqxon Ibrat o'z xalqining porloq kelajagiga, ozod va hur hayot qurajagiga zo'r umid va ishonch bilan qaradi. «Tarixi madaniyat» asarida Vatanning kelajakda ilm-fan, madaniyat rivojlangan shaharlarining qiyofasini romantik bo'yoqlarda tasvirlaydi. Uning ilmiy-tarixiy asarlari Vatanimiz tarixini o'rganishda, shubhasiz, zarur, mo'tabar manba hisoblanadi. Ishoqxon to'ra Ibrat ijtimoiy-siyosiy mavzuda xalq hayotini haqqoniy ifodalovchi bir qancha asarlar yaratdi. Shoirning «Qalaysizlar?», «Bo'lubtur», «O'lursan», «Shikoyat»,



«Siymu zardur» kabi satirik asarlari shular jumlasidandir. Markaziy Osiyoning bosib olinishi natijasida o'lka Rusiya to'qimachilik sanoatini paxta bilan ta'minlaydigan asosiy xom-ashyo bazasiga aylandi. Shoir Ibratning «Qarz» radifli musaddasiga chuqurroq e'tibor berilsa, shoirning she'rdagi zaharxandasi ostida achchiq haqiqat yotganini payqash qiyin emas. Bechora chorakor dehqon o'z oilasini boqish uchun o'zini o'qqa-cho'qqa urishga majbur: u yil boshida bo'lajak paxta hosili ustidan qarz oladi. Hosil kutilganidan kam bo'lgani tufayli qarzga botadi, uy-joyi «xatga tushadi», bir parcha yeridan ham ajraladi.

Ishoqxon Ibrat «Bo'lubtur» radifli hajviyasida o'lka hayotiga kapitalistik munosabatlar bilan birga yaramas, o'ta salbiy illatlar ham kirib kelgani hamda bunday illatlar mahalliy xalq axloqiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsata boshlaganini, ayniksa mehmonxonalarda, restoranlarda iflos ishlar bilan shug'ullanish, «doim fiyon» bo'lib yurish hollari vujudga kelgani kabi hayotiy lavhalarni berar ekan, unga o'zining nafratini ifodalash bilan cheklanmaydi, balki bunday hayotni vujudga keltirgan faktor sifatida Markaziy Osiyoning, jumladan, Qo'qon xonligining Rusiya tomonidan bosib olinishini ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Ishoqxon Ibrat ijodidagi yetakchi g'oya ilm ma'rifat, madaniyat va texnika yangiliklarini targ'ib qilish g'oyasidir.

Ibrat ma'rifatparvarligining tub mohiyati shundaki, uning ilm-ma'rifatga chaqiruvchi she'rlarida inson taqdiri birinchi o'rinda turdi.

U xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi, uning mushkulini yengillashtiruvchi, uzog'ini yaqin qiluvchi ilm fanni, texnikani targ'ib etdi. Shu nuqtai nazardan, uning «Tarixi chopxona», «Madaniyat haqida masnaviy», «Gazeta xususi-da», «Turkiston axdig'a xitob», «Tabrik Namangondin», «Qalam», «Tarixi manzumi vagon Ibratdin yodgor», «Muxammasi Ibrat» kabi she'rlari diqqatga sazovor.

Shoir bu she'rlarida mamlakatni, xalqni asriy qoloqlikka sudrovchi mutaassiblarni, qadimchilarni keskin fosh etdi.

Ibrat mehnatkash xalq boshidagi og'ir hayot, qashshoqlik, mamlakatning qoloqlikda, xalqning nodonlikda qolganining sabablarini aniqlashga, undan qutqarish yo'llarini topishga harakat qildi.

Bir necha tarahqiy etgan mamlakatlarda bo'lgan Ibrat xalqni zulmatdan, mamlakatni qoloqliqdan qutqaruvchi birdan-bir yo'l ilm-ma'rifatni egallash deb tushundi.

Jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida bo'lgan ulug' adib Is'hoqxon Ibrat nafaqat tarixchi, shoir, tilshunos, noshir va o'qituvchi balki o'z davrining yetuk diniy ilmlar ulomosi, qozisi va eng birinchi galda vatan ravnaqi uchun fidoiylilik bilan kurashib, butun umr intilgan tarixiy shaxsdir.

Shoir XIX asr oxirida mamlakatda boshlangan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni to'g'ri anglagan, odamlarni yuksak ideal sari intilishi, milliy uyg'onishi, o'zligini tanishi, buning uchun fan-texnika sohasi yangiliklari, ilm, ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etish, turmushni sog'lom aqida va teran tafakkur asosida qurish lozimligini targ'ib qilgan.

Shu bois uning boy madaniy merosi, nafaqat mamlakatimizda, hatto chet ellarda ham puxta tadqiq etilmoqda.

Shu sababli uning ma'naviy va axloqiy qarashlari hozirgi yoshlar uchun juda muhim ta'lim jarayonlaridan biri hisoblanadi.



Darhaqiqat, Ishoqxon Ibrat Vatan va millat ravnaqi uchun o'z hayoti, ijodi va faoliyati misolida “mingdin bir” odamga nasib qiladigan “nishona” qoldirdi, nomiga mos chinakam ibrat namunasi bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Isxokxon Ibrat. Lugatisittatialsina. T.:Ilintipografiyasi, 1901, 2-bet
2. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий Уйғониш даври ўзбек алабиёти. – Т.: “Маънавият”, 2004. – Б.110.
3. Vohidova K.A. Ishokxon Ibrat hayoti va ilmiy merosi hakida // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2018. 1-son, -B.206-211.
4. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. Tanlangan asarlari. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2005. – 200 b.
5. Dolimov U. Isoqxon ibrat. - T.: Sharq, 1994.
6. Ziyoyev H. Istiqlol - ma'naviyat negizi. – T.: Ma'naviyat, 1999. 190 b.
7. Ishoqxon Ibrat nomli jamoa xo'jaligi madaniyat ishlari bo'yicha rais muovini B.Nizomov bilan K.Vohidova tomonidan o'tkazilgan suhbat materiallari. 1994.
8. Ishoqov R. Nizomova J.lar bilan o'tkazilgan suhbat matni. 1994. Mart-aprel; B.Nizomov bilan o'tkazilgan suhbat matni. 1994. Mart; R.Nazarov bilan o'tkazilgan suhbat. 1994. Mart. Suhbatlarni K.A.Vohidova uyushtirgan.